

ERTAKLAR ORQALI BOLALARNI NUTQINI USTIRISH

Aliyeva Odinaxon Alisherjon qizi

Qo‘qon universteti

Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20395265>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ertaklar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Ertaklar bolalarning so‘z boyligini oshirib, nutq ravonligi va talaffuzini yaxshilaydi. Shuningdek, ular tinglash, tushunish va qayta hikoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: ertak, bolalar nutqi, nutq o‘stirish, og‘zaki nutq, badiiy adabiyot, ertak terapiyasi, lug‘at boyligi, talaffuz, kommunikativ ko‘nikma, ijodiy fikrlash, xalq ertaklari, nutq madaniyati, dialogik nutq, monologik nutq.

Аннотация: В данной статье освещается значение сказок в развитии речи детей дошкольного возраста. Сказки способствуют обогащению словарного запаса детей, улучшению беглости речи и произношения. Кроме того, они развивают навыки слушания, понимания и пересказа.

Ключевые слова: сказка, детская речь, развитие речи, устная речь, художественная литература, сказкотерапия, словарный запас, произношение, коммуникативные навыки, творческое мышление, народные сказки, культура речи, диалогическая речь, монологическая речь.

Xalqimiz “Ertaklar-yaxshiliklar yetaklar”, deb bejiz aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda, ularning ma‘naviy olamini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqat-e‘tibori, tafakkuri rivojlanadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish, she‘r yodlatish, shuningdek so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin. Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash, insoniy fazilatlarni targ‘ib etish, ular o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bitta ertakni qayta-qayta eshitishni yoqtiradilar. Shunga ko‘ra ham uni bir marta emas, bir necha marta o‘qib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda tarbiyachi: «Bolalar, ertak yoqdimi? Mazmunini tushundinglarmi? Yana bir marta o‘qib beraymi?» deb murojaat etib turishi kerak. Bolalar ertak mazmunini yuzaki tushungan bo‘lishlari mumkin. Shuning uchun dastlabki idrokni chuqurlashtirish maqsadida bolalarni ertak mazmuniga olib kirish lozim bo‘ladi. Rasm idrokni yana ham chuqurlashtiradi. Bolalar ertak tinglash paytida ko‘z oldilariga keltirishga ulgurmagani jihatlar: qahramonlarning kiyinishlari, o‘zlarini tutishlari va boshqa holatlar rasm yordamida jadal anglanadi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga ertak asosida rasmlar chizishni ham topshirq sifatida foydalansayam buladi. Rasm chizish paytida bolalarda malumot yetishmasligi kuzatilmaydi. Bolalar tarbiyachidan bazi bir narsalarni sorashga intiladilar masala; “nima dmoqchi buldi ustoz”, “shunda qizchani ayasi qizini yomon koradimi?”. Natijada bola ertakka qiiqishi yanada ortadi. Ertakni chuqurroq urganishga xarakat qiladi xattokiy uyiga borganda ham bu ertakni eslab shunda shunaqa dsa ulardi db o‘zini fikrini aytishga harakat qladi. Shu sabali bolalar tizgan rasmlari orqali tasavurlari kenggayadi va tasavur qilishlari rivojlanadi. Kattalar bolalarga ertak o‘qib berish mobaynida ertak elementlari orqali ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirgan holda obrazli tafakkurining o‘shishiga ma‘lum qismiga ta‘sir

etadilar. Sekinasta bolaning o'zi ham bu jarayonda ishtirok eta boshlaydi, ya'ni birinchi rasmlarni tomosha qiladi, so'ngra ovozga taqlid qilish orqali ertak qahramonlarining nomini aytishga, tanish jumalarni davom etgirishga harakat qiladi va, nihoyat, ertakni qayta so'zlab beradi. Boshqa jarayonlarda u bir necha ertakni tasvirlash, taqqoslash, ertak qahramonlariga taqlid qilish va tavsif berish, mavzuli yo'nalishda o'zgarishlarni sezish yangi qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Ertaklar bolalar tarbiyasida beqiyos o'rin egallaydi. Ertaklar orqali bolalar nafaqat voqealarni eslab qoladi, balki ularni tahlil qilishga, xulosa chiqarishga ham o'rganadi. Kupincha, ertaklardagi ijobiy va salbiy obrazlar bolalarning axloqiy qarashlarini shakllantirishi mumkin. Yaxshi qahramonlarga taqlid qilish, yomon xatti-harakatlardan esa yiroq bo'lishxoxish bolada asta sekn rivojlanadi. Bu jixat esa bolada shaxs sifatida kamol topishida katta yordam beradi. Bog'cha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida ertaklardan foydalanish juda yaxshi usullardan biridir. Chunki ertaklar oddiy, tushunarli va obrazli tilda bayon etiladi. Bu esa bolalarning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Har bir ertak yangi so'zlar, iboralar va gap tuzilmalari bilan boyitilgan bo'lib, ularni muntazam eshitib borish bola nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ertaklarni ifodali o'qib berish ham alohida ahamiyatga ega. Tarbiyachi ertakni o'qiyotganda ovoz ohangini o'zgartirib, qahramonlarning xarakteriga mos tarzda ifodalashi kerak. Masalan, ijobiy qahramonlar muloyim ohangda, salbiy obrazlar esa biroz qo'polroq yoki jiddiy ohangda ifodalanishi bolalarning ertakka bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bu usul bolalarda eshitish orqali idrok etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, ertaklarni sahnalashtirish usuli ham juda samaralidir. Bolalar ertak qahramonlari rolini ijro etish orqali nafaqat matnni yaxshiroq eslab qoladilar, balki o'z his-tuyg'ularini ifoda etishni ham o'rganadilar. Bu esa ularning nutqiy faolligini oshiradi, ijtimoiy moslashuviga yordam beradi va o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Ertaklar orqali bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ham mumkin. Masalan, tarbiyachi ertakni o'qib bo'lgach, bolalarga savollar berishi mumkin: “Agar sen shu qahramon o'rnida bo'lsang nima qilarding?”, “Bu voqea qanday tugashi mumkin edi?” kabi savollar bolalarni o'ylashga, fikr yuritishgachaqiradi. Bu savollar esa bolalarning tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, ertaklarni boshqa faoliyat turlari bilan bog'lash ham muhimdir. Masalan, ertak asosida rasm chizish, plastilin bilan qahramonlar yasash, sahna ko'rinishlari tayyorlash kabi mashg'ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayonda bola ertak mazmunini yanada chuqurroq anglaydi va uni amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi.

Ertaklarning yana bir muhim jihati – ularning tarbiyaviy ta'siridir. Ertaklar orqali bolalarda halollik, mehribonlik, yordam berish, sabr-toqat kabi fazilatlar shakllanadi. Masalan, ko'plab xalq ertaklarida mehnatkash va halol qahramonlar oxir-oqibat muvaffaqiyatga erishadi, dangasa yoki yomon niyatli qahramonlar esa jazolanadi. Bu orqali bolalar hayotiy saboqlarni oson anglab yetadilar. Maktabgacha ta'lim jarayonida ertaklardan tizimli foydalanish muhim hisoblanadi. Tarbiyachi ertaklarni bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlashi lozim. Kichik yoshdagi bolalar uchun qisqa va sodda ertaklar mos bo'lsa, katta guruh bolalari uchun murakkabroq mazmunga ega ertaklar tanlanadi. Bu esa bolalarning qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Agarda kichik guruhga kattaroq ertak ayta bersa, rolga kirshib ifodali oqish orqali bulsaxam Bolani tezda zerkitib quyadi. Bu holatda bola tasavurini susligi kop kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganimda, ertaklar bog'cha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda eng samarali va tabiiy vositalardandir. Ertaklar bolalarning so'z boyligini oshiradi, nutq ravonligini shakllantiradi va sozlarni to'g'ri talaffuz qilish o'rganadi. Ertaklarni har kuni tinglash va qayta hikoya qilish orqali bolalarda eslab qolish, fikrni erkin bayon etish va tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jo'rayev M., Qodirova M. – *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
2. Xo'jayev Sh., To'laganova Z. – *Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlar metodikasi*. Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – *Davlat maktabgacha ta'lim standarti*.
4. Vygotskiy L.S. – *Bolalar psixologiyasi va nutq rivoji asoslari*.
5. Piaget J. – *Bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishi*.
6. O'zbek xalq ertaklari to'plami – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.